




Bankni strategik rivojlantirish  
departamenti

## Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

15 iyun, 2026 yil

# SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi ( 20 oktabr 2025 yildan 15 iyun 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



## SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,302% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,215% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,477% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasayib va 9,42% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



## NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,132% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,089% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



## IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,345% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,35% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




## AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,328% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,307% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

# SOFR va Euribor


## AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

### SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,63% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasayib— 3,60% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


### Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,38% (3 oylik) va 2,639% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,639% (6 oylik) va 2,401% (3 oylik) ni tashkil etdi.


# O'zbekiston valyuta bozori

## O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 724,1 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 214,2 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 013 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 981 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya o,24% ni tashkil etdi.

## Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



15.06.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Tenge banki* da qayd etilgan – 12 000 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 015 – 12 040 so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Turon bankda* qayd etilgan – 11 980 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 970 – 11 920 so'm atrofida bo'lgan.


# Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)




Dollar kursi 73,1 rublgacha pasaydi

8–12 iyun kunlari oralig'ida USD/RUB valyuta juftligi kursi 74,0 rubldan 73,1 rublgacha pasaydi, bu esa Rossiya rublining mustahkamlanganini ko'rsatadi. Asosiy harakat pasayish tendensiyasi doirasida kechib, 11 iyun kuni 72,5 rubl darajasida mahalliy minimum qayd etildi. 12 iyun kuni dollar kursining o'sishi tuzatish (korreksion) xarakterga ega bo'lib, bozordagi umumiy tendensiyani o'zgartirmadi. Hozirgi vaqtda valyuta juftligi muhim texnik darajalar yaqinida savdo qilinmoqda. Kursning 73,0 rubldan yuqorida mustahkamlanishi keyingi korreksion o'sishni qo'llab-quvvatlashi mumkin, 72,5 rubldan pastga tushishi esa rubl pozitsiyalarining yanada kuchayishiga xizmat qiladi. Keyingi harakatlar bozor omillari va savdo ishtirokchilari faolligiga bog'liq bo'ladi.

USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi




CNY/RUB kursi pasayishda davom etmoqda

8–12 iyun kunlari oralig'ida CNY/RUB kursi 10,6 rubldan 10,3 rublgacha pasaydi, bu esa Rossiya rublining Xitoy yuaniga nisbatan mustahkamlanganidan dalolat beradi. Asosiy pasayish haftaning birinchi yarmida kuzatildi, shundan so'ng bozor barqarorlashuv bosqichiga o'tdi.

So'nggi kunlarda kurs 10,2–10,3 rubl oralig'ida saqlanib turibdi. Joriy dinamika yuan kursiga nisbatan mo'tadil bosim saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Kursning keyingi yo'nalishi valyuta bozorida talab va taklif muvozanatiga bog'liq bo'ladi.

EUR-USD dinamikasi





Yevro dollarga nisbatan o'z mavqeini mustahkamlamoqda

8–12 iyun kunlari davomida EUR/USD valyuta juftligi barqaror o'sishni namoyish etib, 1,1554 darajasidan 1,1622 darajasigacha ko'tarildi. Hafta o'rtasida ayrim kichik tebranishlar kuzatilgan bo'lsa-da, yevro AQSH dollariga nisbatan ustunligini saqlab qoldi.

Ijobiy dinamika Yevropa valyutasiga bo'lgan talabning yuqoriligini hamda bozorda o'sish tendensiyasi ustun ekanini tasdiqlaydi. Kursning 1,16 darajasidan yuqorida mustahkamlanishi kotirovkalarning yanada o'sishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Shu bilan birga, bozor ishtirokchilari valyuta juftligining keyingi harakatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy omillarni diqqat bilan kuzatishda davom etmoqda.

# Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil



Oltin narxi 4200 dollardan yuqori darajada saqlanib qolmoqda: bozor barqarorligini namoyon etmoqda



8–12 iyun kunlari davomida oltin narxlar yuqori volatillikni namoyish etib, 4328,6 dollardan 4218,7 dollargacha pasaydi. Eng sezilarli pasayish 10 iyun kuni qayd etildi, shundan so'ng kotirovkalar qisman tiklandi.

Korreksion pasayishga qaramay, oltin narxi psixologik jihatdan muhim bo'lgan 4200 dollar darajasidan yuqorida savdo qilinishda davom etmoqda. Joriy dinamika investorlarning himoya aktivlariga bo'lgan qiziqishi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Narxlarning keyingi harakati global iqtisodiy omillar hamda moliya bozorlaridagi kayfiyatga bog'liq bo'ladi. Bu omillar oltin bozoridagi talab va taklif muvozanatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Brent nefti arzonlashmoqda: hafta bosim ostida yakunlandi



8–12 iyun kunlari davomida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 94,25 dollardan 87,33 dollargacha pasaydi. 11 iyun kuni qisqa muddatli o'sish kuzatilganiga qaramay, umumiy trend pasayish yo'nalishida saqlanib qoldi.

Hisobot davrining katta qismida kotirovkalariga bosim davom etdi, natijada neft narxlar sezilarli darajada pasaydi. Joriy dinamika talabning susaygani va bozor ishtirokchilari ehtiyotkorlik bilan harakat qilayotganidan dalolat beradi. Narxlarning keyingi yo'nalishi fundamental omillarga, jumladan, jahon bozorida neftga bo'lgan talab va taklif nisbatiga bog'liq bo'ladi. Ushbu omillar yaqin istiqbolda neft kotirovkalarining harakatiga asosiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

TTF gazi narxi keskin pasaymoqda



8–12 iyun kunlari davomida TTF gazi narxi 57,4 darajadan 53,9 darajagacha pasaydi. 9–10 iyun kunlari kuzatilgan qisqa muddatli o'sishdan so'ng bozor pasayish yo'nalishiga qaytdi va 12 iyun holatiga kelib narxlarning tushish sur'ati yanada tezlashdi. Natijada kotirovkalar hisobot davridagi eng past darajalarga yaqinlashdi. Ushbu dinamika taklif bosimining kuchaygani hamda qisqa muddatli talabning pasayganini ko'rsatmoqda. Kelgusida narxlar harakati ob-havo sharoitlari, gaz zaxiralari hajmi va Yevropa energetika bozoridagi umumiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Aynan shu omillar TTF gaz kotirovkalarining keyingi yo'nalishini belgilovchi asosiy faktorlar sifatida qaralmoqda.

# Yangiliklar

Intesa Sanpaolo yangi “ko‘rinmas to‘lovlar” tizimini ishga tushirdi. Ushbu texnologiya xaridlar uchun to‘lovni bank kartasi yoki mobil telefondan foydalanmasdan, yuzni aniqlash (biometrik identifikatsiya) orqali amalga oshirish imkonini beradi.



Akbank sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ilk to‘liq raqamli ofisini ochdi. Ushbu filialda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari an‘anaviy bank xodimlari ishtirokisiz amalga oshiriladi.



Santander Yevropa davlatlari o‘rtasida yangi xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatini ishga tushirganini ma‘lum qildi. Mazkur tizim foydalanuvchilarga mablag‘larni deyarli komissiyasiz va bir necha soniya ichida yuborish imkonini beradi.



ING Bank Mastercard kompaniyasi bilan hamkorlikda yanada tezkor va xavfsiz onlayn-operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan yangi sun‘iy intellekt (AI) to‘lov tizimini sinovdan o‘tkazdi.

